
KO'P YILLIK ORZULAR USHALDI



- Bir necha yillik orzularim ushaldi. Bir kun kelib mening shunday chiroyli uyim bo'lishini tasavvur ham qilolmaganman. Oilamizga yangi uy qurib berishdi. Buning uchun bizlarni e'tibordan chetda qoldirmagan davlatimiz rahbariga hamda tumanimizdagi sektor rahbarlariga o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

Yurakdan, samimiy aytilgan bu so'zlar 2-sektor hududidagi Bo'ston mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Feruzaxon Fozilovaga tegishli.

Darhaqiqat, vatan ichra kichkina bir vatan qilish uchun bir nechta insonlar yillar davomida mashaqqatli mehnat evaziga erishadi. Feruzaxon ham farzandlari bilan mehnatdan qochmaydi, ammo topgani qora qozondan ortmaydi. Boquvchisini yo'qotgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan ushbu oila uy-joyga ehtiyojmand edi.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy himoya siyosati natijasida Qo'shtepa tumanidagi sektor rahbarlarining tashabbusi bilan saxovatpesha xomiyar tomonidan ushbu oilaning uyi yangidan zamonaviy ko'rinishda qurib berildi.



Bugun tuman hokimi I.Novikov va sektor rahbarlari hamda mahalla faollari ishtirokida yangitdan qurib bitkazilgan uy o'z egalariga topshirildi.

Xonadon egalarining esa quvonchi cheksiz, qalblaridagi shukronalik tuyg'usi ko'zlarida aks etdi. Mahalla oqsoqollari ham duoga qo'l ochib, yurtimiz tinchligi, millatimizga xos bo'lgan mehr-oqibatlilik, ezgu ishlar bardavom bo'lishi uchun niyat qilishdi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-05-19 21:35:59